

SUD-HUQUQ TIZIMIDA INSON HUQUQLARINING USTUNLIGI

Abduvaliyev Ulug'bek Shavkat O'g'li

*Samarqand viloyat Ichki ishlar boshqarmasi Ishtixon tuman Ichki ishlar bo'limi
Tezkor qidiruv xizmati Jinoyat qidiruv bo'linmasi tezkor vakili, leytenant*

Istamov Davlatjon Ilxom O'g'li

*Buxoro viloyat Ichki ishlar boshqarmasi Olot tuman Ichki ishlar bo'limi Tezkor
qidiruv xizmati Jinoyat qidiruv bo'linmasi tezkor vakili, leytenant*

Annotation: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan inson huquqlariga qay darajada e'tibor berilganligi, ayniqsa Jinoyat protsessidagi olib borilayotgan barcha protsessual jarayonlarda mansabdar shaxslarning inson huquqlariga putur yetkazmasdan harakat qilishlari yuzasidan o'tkazilayotgan joriy islohotlar hamda O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasidagi milliy normativ-huquqiy hujjatlari bayon qilingan. Bundan tashqari bugungi kundagi O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili shuningdek ushbu islohotlarning bugungi kundagi ahamiyati hamda uning jamiyatdagi o'rni va roli tahlil qilingan. Bundan tashqari ushbu maqolada so'ngi yillarda mamlakatimizda inson huquqlari sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar huquqiy jihtadan keng tahlil qilingan.*

Tayanch tushunchalar: *huquq. inson, inson huquqlari, islohotlar, huquq tizimi, inson huquqlari, shaxs, jamiyat, davlat, islohotlar, ijtimoiy huquqlar, tabiiy huquqlari.*

Аннотация: В данной статье изложены текущие реформы законодательства Республики Узбекистан в области прав человека, особенно в отношении действий должностных лиц во всех процессуальных процессах в уголовном процессе без ущерба для прав человека, а также национальные нормативные правовые акты Республики Узбекистан в области прав человека. Кроме того, анализ реформ, проводимых сегодня в Республике Узбекистан в области прав человека, а также анализ сегодняшнего значения этих реформ, их места и роли в обществе. Кроме того, в данной статье проведен обширный юридический анализ нормативных правовых актов, принятых в последние годы в нашей стране в области прав человека.

Ключевые слова: *право. человек, права человека, реформы, правовая система, права человека, личность, общество, государство, реформы, социальные права, естественные права.*

Annotation: *this article describes the level of attention paid to human rights by the legislation of the Republic of Uzbekistan, especially the current regulations on the activities of officials in all procedural processes in criminal proceedings without compromising human rights, as well as the national regulatory legal acts of the Republic of Uzbekistan in the field of human rights. In addition, the analysis of the reforms carried out in the field of human rights in the Republic of Uzbekistan today is also analyzed the*

importance of these reforms today and its place and role in society. In addition, this article extensively analyzes the legal aspects of regulatory legal acts adopted in the field of human rights in our country in recent years.

Keywords: law. human, human rights, reforms, legal system, human rights, identity, society, state, reforms, social rights, natural rights.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Muqaddimasida O'zbekiston xalqi inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda, o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish vazifasi qo'yilganligi aytib o'tilgan. Hozirgi dunyoda inson huquqlari yetakchi o'rinni egallashi umume'tirof etilgan dalildir. Inson huquqlari masalasining har qanday sivilizatsiyalashgan, adolatli fuqarolik jamiyatini qurishdagi rolini kamaytirib bo'lmaydi. Demokratik, huquqiy davlat qurishning bosh sharti asosiy huquq va erkinliklarni rag'batlantirish va himoya qilish hamda jamiyatda har bir insonning huquqlarini kafolatlashning haqiqiy tizimini yaratish hisoblanadi.

Inson huquqlari yer yuzida hayotning to'laqonlilagini belgilaydi hamda millatlar madaniyatlarining ajralmas qismi, insoniyat ma'naviy-huquqiy ideallarining eng yuqori darajada ko'rinishi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham, hozirgi zamon dunyosining ma'naviy qadriyatlari orasida umume'tirof etilgan inson huquqlari eng muhim o'rnlardan birini egallaydi. BMT Nizomi va xalqaro konvensiyalarda hamda dunyoning turli mamlakatlari konstitutsiyalarida mustahkamlangan inson huquqlari fundamental va ajralmas huquqlar sifatida ongimizga singib bormoqda. So'nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda. Hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalarni taqdim etib kelmoqda. Inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq va Virtual qabulxonalari, shuningdek, Bosh vazirning Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha qabulxonalari alohida o'rin egallamoqda. Sud-huquq sohasini yanada demokratlashtirish, Konstitutsiya ustuvorligi, qonun oldida tenglik, insonparvarlik, adolatlilik, sud

hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, sud jarayonida tortishuv tamoyillarini tatbiq etish, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, «Xabeas korpus» institutini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmui qabul qilindi.

Inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda, nizolarni sudgacha hal qilishda va taraflarni yarashtirishda advokatlarning vakolatlari sezilarli darajada kengaytirilmoqda. Sudlarda ishlarni ko'rib chiqishdaadolatni, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash uchun «Elektron odil sudlov» tizimi joriy etildi. Aholiga bepul yuridik yordam ko'rsatish tizimi, shuningdek, Advice.uz huquqiy ma'lumotlar tizimining imkoniyatlarini kengaytirish hamda fuqarolarga bepul huquqiy maslahatlar xizmatini ko'rsatuvchi «Madad» nodavlat notijorat tashkilotini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilindi.

Ma'muriy, jinoiy, jinoyat-protsessual va jinoyat-ijroiya qonunchiligi takomillashtirib borilmoqda hamda insonparvarlik tamoyiliga yanada moslashtirilmoqda. Afv etish va jamoat birlashmalarining kafilligi ostida shaxslarni jazodan ozod qilishning mutlaqo yangi tizimi joriy etildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Jasliq qo'rg'onida joylashgan ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish koloniyasining yopilishi muhim insonparvar voqelik bo'ldi. Qabul qilinayotgan chora-tadbirlar natijasida ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan mahkularning soni 2,5 baravar kamaydi.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari ta'limi sohasidagi butunjahon dasturida faol ishtirok etmoqda. «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish kontseptsiyasi» va BMTning Inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirish bo'yicha Milliy harakat dasturining ijrosi yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat organlari, fuqarolik jamiyati institatlari, ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari aholi orasida umuminsoniy qadriyatlар, inson huquqlarini hurmat qilish va rioya qilish tamoyillarini ommalashtirishga, shuningdek, fuqarolarning huquqiy axborotdan foydalanishini ta'minlash jarayoniga keng jalb etilgan.

Fuqarolarning siyosiy huquqlari va erkinliklari, fikr, so'z va vijdon erkinligini ta'minlashda jamiyat va davlat boshqaruvidagi keng qamrovli tub o'zgarishlar katta ahamiyatga ega. Parlament va jamoatchilik nazoratining samarali mexanizmlari mustahkamlanmoqda. Vazirlar Mahkamasining parlament oldidagi mas'uliyati sezilarli darajada kuchaytirildi. «Elektron parlament» va «Elektron hukumat» tizimi rivojlantirilmoqda, davlat xizmatlarining turlarini kengaytirish, ularning imkoniyatlari, sifati va tezkorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinmoqda.

Parlament, fuqarolik jamiyati institatlari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, «Xalq qonunlarning tom ma'noda yagona manbai va muallifi hisoblanadi» hamda «Barcha muhim qarorlar bevosita xalq bilan muloqot asosida, jamoatchilikning fikrini hisobga olgan holda qabul qilinadi» tamoyillarini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Oliy Majlis

palatalari tomonidan inson huquqlarining holati to'g'risidagi ma'ruzalar, inson huquqlarini ta'minlashda xalqaro va mintaqaviy mexanizmlar bilan hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha milliy harakat rejali («yo'l xaritalari»)ni tasdiqlash amaliyotining yo'lga qo'yilishi qonun ijodkorligida yangi muhim qadam bo'ldi.

O'zbekistonda inson huquqlariga rioya qilish va uni himoya qilishning milliy mexanizmlarini yanada mustahkamlash va rivojlantirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) va Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyati tubdan takomillashtirildi. Bola huquqlari bo'yicha vakil va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil lavozimlari joriy qilindi.

Fuqarolarning ijtimoiy va madaniy huquqlarini ta'minlashning noyob tizimi yaratildi. «Obod qishloq», «Obod mahalla», «Yoshlar – kelajagimiz», «Besh tashabbus» kabi 20 dan ortiq davlat ijtimoiy dasturlari va kontseptsiyalari amalga oshirilmoqda. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida milliy maqsadlarni ro'yobga chiqarish, inson taraqqiyoti bo'yicha yuqori indeksga ega bo'lgan (intellektual salohiyati, savodxonligi, insonning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi) davlatlar darajasiga erishishga, ijtimoiy sohaga innovatsiyalarni keng joriy etishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar qabul qilinmoqda.

Ta'lim va tarbiya sohasida keng ko'lamli tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. 2025 yilga borib, 3–7 yoshdagi bolalarning 74,5 foizini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni nazarda tutuvchi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish kontseptsiyasi hayotga joriy etilmoqda. 11 yillik mакtab ta'limi tizimi qayta tiklandi. Bugungi kunda davlat, nodavlat va xorijiy oliy o'quv yurtlarining soni ortib bormoqda. O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotidagi nufuzi oshirilmoqda hamda xalqaro darajada «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» tamoyili asosida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar natijasida aholining sifatlari tibbiy-sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyati oshdi. Eng asosiysi, mamlakatdagi o'rtacha umr ko'rish darajasi 1990 yildagi 67,2 yoshdan 2020 yilga kelib 74,6 yoshga yetdi, onalar o'limi bir yarim baravar hamda bolalar o'limi esa, to'rt baravarga kamaydi.

O'zbekiston iqlim o'zgarishlari bo'yicha Parij bitimiga qo'shildi, mamlakatda Ekologik ta'limni rivojlantirish kontseptsiyasi amalga oshirilmoqda.

Kam ta'minlangan oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, mehnat migrantlari, bolalar, yoshlar, ayollar, katta yoshdagilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, oila institutini mustahkamlash bo'yicha ishlar tubdan qayta ko'rib chiqildi. Oila institutini mustahkamlash bo'yicha kontseptsiya qabul qilinib, uning mazmunida oilaviy mojarolarni hal etish mexanizmlari, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish masalalari o'rinnoldi.

Gender tenglikni ta'minlash maqsadida bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Xususan, 2019 yilda qabul qilingan «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi, «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi qonunlar shular jumlasidan. Xotin-qizlar uchun 197 ta Zo'rlik ishlatalishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish, o'z joniga qasd qilishning oldini olish markazlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha 200 dan ortiq innovatsion maktablar tashkil etildi. Erkaklar va ayollar uchun nikoh tuzishning minimal Yoshi o'n sakkiz yosh etib belgilandi. Xalqaro saylov standartlarini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi qabul qilinib, uning asosida 2019 yil 22 dekabrda «Yangi O'zbekiston – yangi saylovlar» shiori ostida bo'lib o'tgan saylovlarda ilk bor 5 ta siyosiy partiya ishtirok etdi. Saylovlarining ochiq-oydin, xalqaro standartlar asosida o'tkazilishini nazorat qilish uchun 50 ga yaqin davlat hamda 10 ta xalqaro tashkilotdan 825 nafar kuzatuvchi, jumladan, birinchi marta Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosining to'laqonli missiyasi ishtirok etdi.

Mamlakatda uzoq vaqtidan beri yashab kelib, O'zbekiston fuqarosi degan huquqiy maqomga ega bo'lмаган 50 mingga yaqin yurtdoshlarimizning ana shu muammosi hal etilib, ularni O'zbekiston fuqarolari sifatida tan olishning qonuniy choralar ko'rildi. Propiska qilish tizimidan xabar berish xususiyatidagi ro'yxatdan o'tkazish tizimiga o'tish bo'yicha ishlar amalga oshirildi.

Barcha iqtisodiy va ijtimoiy dasturlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan investitsion loyihamalar yangi ish o'rinalarini yaratish, shuningdek, mehnat migrantlarining huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi, Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi tashkil etildi. «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» degan tamoyil asosida xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni davom ettirish, aholi farovonligini oshirish va uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish davlat hokimiyyati organlarining bosh vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

O'zbekistonda vijdon erkinligi huquqini ta'minlash sohasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mamlakatda 16 ta konfessiyaning 2 277 ta diniy tashkilotlari o'z faoliyatini olib bormoqda. «Jaholatga qarshi ma'rifat» g'oyasini amalga oshirishga, diniy ta'lim va ma'rifat tizimini rivojlantirishga, diniy xodimlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston xalqaro huquq sub'ekti sifatida o'z rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarilmoqda va xalqaro norma ijodkorligining faol ishtirokchisi va yangi xalqaro shartnomalarning tashabbuskori sifatida maydonga chiqmoqda. Iqtisodiy, siyosiy-huquqiy reytinglar va indekslardagi pozitsiyani yaxshilash, mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshirish maqsadida xorijiy reyting agentliklari bilan tizimli ravishda yaqindan hamkorlik aloqalari amalga oshirilmoqda. Ustuvor xalqaro

reyting va indekslar bilan ishlashni muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi tashkil etildi. BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasida O'zbekistonning tashabbusi bilan «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» to'g'risidagi rezolyutsiya qabul qilindi. O'zbekiston BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konventsiyasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi.

BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo'mitalari, inson huquqlari bo'yicha maxsus ma'ruzachilar instituti bilan hamkorlik izchil ravishda rivojlanib bormoqda. Jumladan, mamlakatimizga tashrif buyurgan BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari, Inson huquqlari bo'yicha kengashining Din va e'tiqod erkinligi hamda Sud'yalar va advokatlar mustaqilligi masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachilarining tavsiyalarini bajarish yuzasidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning Xalqaro mehnat tashkiloti konventsiyalari doirasida xalqaro majburiyatlarini, shuningdek, ushbu tashkilot tomonidan taqdim etilgan paxta yig'im-terim kampaniyasi monitoringi yakunlari bo'yicha tavsiyalarni bajarishi, shu jumladan, 2017–2020 yillarda O'zbekistonda munosib mehnat bo'yicha dasturning amalga oshirilishi xalqaro hamkorlar tomonidan ijobiy baholandi.

BMT tashkil etilganidan buyon Osiyo mintaqasida birinchi marta tashkil etilgan Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi Samarcand shahrida bo'lib o'tdi. Ushbu Forumda BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasining asosiy hujjalardan biri sifatida tasdiqlangan Inson huquqlari bo'yicha Samarcand deklaratsiyasi qabul qilindi. O'zbekiston parlamenti inson huquqlarining «Samarcand ruhi»ni amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi»ni tasdiqladi. 2019 yilda Toshkent shahrida Islom hamkorlik tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Mustaqil doimiy komissiyasining VI yillik seminari o'tkazildi va uning natijalari bo'yicha Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi.

Yuqoridagilarni inobatga olib O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessida inson huquqiga berilayotgan e'tiborlar kelajakda xalqaro munosabatlarda davlatimizning o'rnini ham belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi <https://lex.uz/docs/-111460>
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi <https://lex.uz/docs/111453>
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiyya kodeksi <https://lex.uz/docs/-163629>
5. O'zbekiston Respublikasi prezidentining BMT bosh assembliyasining 78-sessiyasida so'zlagan nutqi
6. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi
7. Shavkat Mirziyoyev BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida nutqi

8. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyusiya 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul va e'lon qilingan

9. Inson huquqlari umumiylar nazariyasi: IIV tizimidagi ta'lif muassasalari tinglovchi va kursantlari, shuningdek huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari uchun darslik. — Т., 2012. — 304 b

10. Сайдов А.Х.. Международное право прав человека: Учебное пособие / Отв.ред. акад. Б.Н. Топорнин. М., 2002. - С. 80.

11. Образование в области прав человека: национальный и зарубежный опыт / Отв. изд. А.Х. Сайдов. - Ташкент: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, 2011. - С. 11.

12. <https://www.ohchr.org/RU/AboutUs/Pages/WhatWeDo.asp>